



# M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№2-3/2023

Litsenziya raqami: №095310



# MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 168 sahifa, 26-dekabr, 2023-yil.*

## TAHRIR HAY'ATI:

|                                        |                                                                                                                                      |                           |
|----------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------|
| Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich | tarix fanlari doktori, professor                                                                                                     | Bosh muharrir             |
| Ibragimova Gulsanam Ne'matovna         | pedagogika fanlari doktori(DSc), professor                                                                                           | Bosh muharrir o'rinbosari |
| Hamdamova Maxzuna Tursunovna           | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                                                           | Bosh muharrir o'rinbosari |
| Jamoldinova Odinaxon Rasulovna         | pedagogika fanlari doktori, professor                                                                                                | A'zo                      |
| Djamilova Nargiza Nuriddinovna         | pedagogika fanlari doktori (DSc), professor                                                                                          | A'zo                      |
| Babayeva Dono Razzakovna               | pedagogika fanlari nomzodi, professor                                                                                                | A'zo                      |
| Sadikova Shoista Akbarovna             | pedagogika fanlari nomzodi, professor                                                                                                | A'zo                      |
| Jumanova Fotima Uralovna               | pedagogika fanlari nomzodi, dotsent                                                                                                  | A'zo                      |
| Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna     | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                                                           | A'zo                      |
| Mirzayeva Farog'at Odiljonovna         | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                                                           | A'zo                      |
| Bafayev Muxiddin Muxammadovich         | psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                                                          | A'zo                      |
| Ne'matov Shuhrat Ergashovich           | pedagogika fanlari nomzodi                                                                                                           | A'zo                      |
| Ochilov Sevin Rajaboyevich             | Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti | A'zo                      |
| Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna        | Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                                                           | A'zo                      |
| Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna          | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)                                                                                    | A'zo                      |
| Radjabova Zuxra Tirkashevna            | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                                                           | A'zo                      |
| Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna      | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent                                                                           | A'zo                      |

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                       |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Kelajak – biz tayyorlagan tarbiyachilarlar qo'lida (tarbiya tamoyillari) .....                                                                        | 5  |
| Hamdamova Mahzuna Tursunovna                                                                                                                          |    |
| Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari.....                                                                       | 9  |
| Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna                                                                                                                 |    |
| Исследовательская деятельность дошкольников и проведение опытов .....                                                                                 | 13 |
| Садикова Д. Х., Будаева О. Р.                                                                                                                         |    |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni aqliy, axloqiy, estetik rivojlanishida<br>qo'g'irchoq teatrini tashkil etishning ahamiyati.....                  | 16 |
| Nurmatova Iroda Toxtasinovna                                                                                                                          |    |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarning ahamiyati .....                                                                                       | 19 |
| Choriyeva Durdona Anvarovna, Ahmadova Sabohat Olimjon qizi                                                                                            |    |
| Организация STEAM – лаборатории в дошкольных образовательных организациях.....                                                                        | 23 |
| Намазбаева Лола Закировна, Латипова Луиза Салохидиновна                                                                                               |    |
| Bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasining mazmuni.....                                                            | 27 |
| Namazbayeva Lola Zakirovna, Shermaxmatova Saodat Shovkat qizi                                                                                         |    |
| Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish .....                                                               | 33 |
| Sharofiddinova Madinabonu                                                                                                                             |    |
| Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish .....                                              | 36 |
| Mamatkulova Kimyoxon Abduljalilovna, Qodirova Nazokat Husniddin qizi                                                                                  |    |
| Modern and High-Quality Methods in Schools.....                                                                                                       | 40 |
| Niyazmetova Zukhrajon Sobirovna                                                                                                                       |    |
| Особенности психолого-педагогической подготовки профессиональных спортсменов (каратеистов) ...                                                        | 44 |
| Дурдона Туракулова                                                                                                                                    |    |
| Теоретические аспекты формирования социальной адаптации подростков из неполных семей .....                                                            | 48 |
| Умарова Малика Хисабидиновна, Туймуродова Зухра Рустамовна                                                                                            |    |
| Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish.....                                                            | 52 |
| Sotiboldiyeva Shaxrizoda Shuxratbek qizi                                                                                                              |    |
| Jadidchilik harakatining vujudga kelishi .....                                                                                                        | 55 |
| Mirzayeva Faroxat Odiljonovna                                                                                                                         |    |
| Ta'lim sifatini oshirishga oid ayrim mulohazalar.....                                                                                                 | 59 |
| Voxidova Norposhaxon Xabibullayevna, Obidxonova Robiya Abdushukur qizi                                                                                |    |
| Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari.....                                                        | 62 |
| Adizova Gulzoda Mehriddinova, Yaxshilikova Hilola Ulig'bek qizi                                                                                       |    |
| The Psychological Role of the Scientific Heritage Left by our Ancestors<br>in the Formation of Moral and Educational Consciousness of the Youth ..... | 65 |
| Ruziboyev Temur Bakhodirovich, Teshayev Sobit Sadikovich                                                                                              |    |
| Boshlang'ich maktablarda o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarida ikki tomonlama yondashuv .....                                                        | 67 |
| Xayitova Zilola Maxmudjonovna                                                                                                                         |    |
| Hayot sifatini oshirish – davr talabi.....                                                                                                            | 70 |
| Abdullayeva Ranajon Matyoqubovna                                                                                                                      |    |
| Klasterli yondoshuv asosida maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari integratsiyasini rivojlantirish .....                                         | 73 |
| Rizayeva Gulnora Botirovna                                                                                                                            |    |
| О специфике изучения проблемы адаптации студентов в высшем учебном заведении .....                                                                    | 80 |
| Тиллашайхова Хосият Азаматовна                                                                                                                        |    |
| Kasbiy kompetentlikning bugungi kun pedagogi imijida ahamiyati .....                                                                                  | 84 |
| Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna                                                                                                                     |    |



|                                                                                                                                                                        |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashning xususiyatlari.....                                                                                                   | 87  |
| Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li                                                                                                                                       |     |
| Экспериментальное изучение проявления невербального агрессивного поведения в системе “Руководитель - Подчиненный”.....                                                 | 90  |
| Назирова Лола Васижановна                                                                                                                                              |     |
| Shaxs o'zini o'zi baholashining salbiy va ijobiy jihatlari .....                                                                                                       | 94  |
| Raxmonova Nigina Aminjonovna                                                                                                                                           |     |
| Ijtimoiy moslashuv va pedagogik tafakkurning rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich .....                                                                         | 97  |
| Ravshanova Nargiza Norboyevna, Avezberdiyeva N., Ne'matullayeva O., Abdullayeva N., Abduraxmonova S.                                                                   |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pape-mash'e (G'ijimlangan qog'oz) usulida o'yinchoqlar va buyumlar yasash .....                                                     | 100 |
| Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna                                                                                                                                       |     |
| Tarbiyachi-pedagogning kompetentlik transformatsiyasi .....                                                                                                            | 105 |
| Rasulxo'jayeva M. A., Urinova Z. O'.                                                                                                                                   |     |
| Uyushmagan yoshlarning huquqiy-psixologik muammolari .....                                                                                                             | 110 |
| Kudratova Lola Ravshanovna                                                                                                                                             |     |
| Копинг-поведение студентов: стратегии преодоления стресса в образовательной среде .....                                                                                | 113 |
| Аскарова Гулрух Оринбосаровна                                                                                                                                          |     |
| Ривожланish markazlarida 6-7 yoshli bolalarni mustaqil faoliyatini tashkil etish.....                                                                                  | 117 |
| Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Amirova Munisa Yusuf qizi                                                                                                             |     |
| Проявление религиозной тематики в произведениях современных писателей Востока: Ф. Светлова “Отверзи мне двери” и Улугбека Хамдама “Бунт и смирение” .....              | 122 |
| Чернова Татьяна Алексеевна                                                                                                                                             |     |
| Role of Innovation in Economic Development.....                                                                                                                        | 125 |
| Turdiyeva Nilufar Anvarovna                                                                                                                                            |     |
| Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kitob va kitobxonlikning o'rni .....                                                                    | 128 |
| Xasanova Nilufar Botirboyevna                                                                                                                                          |     |
| Ijtimoiy hamkorlik asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish .....                                                                   | 133 |
| Artikbayeva Aziza Abrorovna                                                                                                                                            |     |
| O'smirlar agressiyasining shaxslilik determinantlari .....                                                                                                             | 136 |
| To'laganova Ziyoda                                                                                                                                                     |     |
| Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda nutq o'stirish metodikasidan foydalanish, metodik tavsiyalar berishni takomillashtirish ..... | 141 |
| Musulmonova Shaxnoza To'liqinova                                                                                                                                       |     |
| Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ertak .....                                                                                                                           | 144 |
| Rizayeva Xusniya Ubayevna                                                                                                                                              |     |
| Mehrjon bayrami.....                                                                                                                                                   | 148 |
| Uralova Momogul Karimberdinovna                                                                                                                                        |     |
| Bo'lajak tarbiyachilarni ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga kasbiy tayyorlash.....                                                                                         | 151 |
| Sadikova Shoista Akbarovna                                                                                                                                             |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilingual rivojlanish.....                                                                                                            | 154 |
| Sadikova Shoista Akbarovna, Tadjiyeva Muhabbat Xaydarovna, Nasreddinova Husnorabonu Jamoliddin qizi                                                                    |     |
| Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в доо.....                                                                                           | 157 |
| Эргашева Камола Алишеровна                                                                                                                                             |     |
| Modeling Methods in the Process of Forming Mathematical and Logical Concepts in Preschool Children .....                                                               | 161 |
| Gaukhar Djanpeisova Erkinona, Mamatqulova Nilufar                                                                                                                      |     |

# KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika" kafedrası dotsenti



**Qodirova Nazokat Husniddin Qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada mustaqil ta'lim tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, nazariy va amaliy jihatlari, talaba mustaqil ta'limi va uni bajarilishga qo'yilgan talablar, kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish, mustaqil ta'limni tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda foydalaniladigan shakllar mazmuni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Jamoa, esse, keys, individual ta'lim trayektoriyasi, usluksiz kasbiy rivojlanish, individual yondashuv, loyiha.

**Abstract:** In the article, the concept of independent education and its essence, theoretical and practical aspects, student independent education and requirements for its implementation, improvement of the mechanism of organizing independent education of students in the credit module system, student's role in organizing independent education. The content of the forms used, taking into account the level of academic achievement and ability, is highlighted.

**Key words:** Team, essay, case Individual educational trajectory, informal professional development, individual approach, project.

**Аннотация:** В статье рассмотрено понятие самостоятельного образования и его сущность, теоретические и практические аспекты, самостоятельное обучение студентов и требования к его осуществлению, совершенствование механизма организации самостоятельного обучения студентов в кредитно-модульной системе, роль студента в организации самостоятельного обучения. выделено содержание используемых форм с учетом уровня успеваемости и способностей.

**Ключевые слова:** Команда, эссе, кейс, индивидуальная образовательная траектория, неформальное профессиональное развитие, индивидуальный подход, проект.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 824-sonli Qarori <sup>[1]</sup> bilan OTM larning akademik mustaqilligini kengaytirish bo'yicha masalalar belgilandi va "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom" tasdiqlandi. Ushbu qaror ijrosini





ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 15-yanvardagi №30-sonli buyrug'i bilan OTMLarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga taalluqli hujjatlar namunalarini tasdiqlandi.

## ASOSIY QISM

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 16-iyuldagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 311-son buyrug'i asosida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha Yo'riqnoma ishlab chiqilgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Talabani mustaqil ta'limini tashkil qilish muammosi pedagogik jihatdan yangilik emas. Bu muammo L. G. Vyatkina, M. G. Gorunova, B. P. Yesipova, I. I. Ilyasova, P. I. Pidkasiy, V. L. Shatunovskiy va boshqalar, respublikamiz pedagog olimlaridan A. A. Abduqodirov, Saidaxmedov, M. Aripov, F. Zokirova kabi olimlarning ishlarida turli yillarda, ayniqsa, o'tgan asrning oxirgi yillarida, "Mustaqil ta'lim"ning keng va tor ma'nodagi mohiyatini aniqlash va uni mahsuldor tashkil qilishning faol usul va metodlari, uning o'quv jarayonida (oliy ta'limda) tutgan o'rni, sharoitlarni aniqlash, o'quvchilar tomonidan uni faollashtirishga qo'l keladigan omillar bo'yicha izlanishlar olib borilgan [2].

Talabani mustaqil ta'limi bilimlarni o'zlashtirishning oddiy biror uslubi deb qaramaslik kerak, aksincha, oliy ta'lim muassasasi faoliyatining birdan bir asosiy prinsiplaridan hisoblanadi. Mustaqil ta'lim yagona o'quv jarayonining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki u o'quv jarayoni tomonidan tashkil qilinadi, maqsadli yo'naltiriladi, reglamentlar qo'yiladi va nazorat qilinadi. Shu boisdan ham talabani mustaqil ta'limni tashkil qilish, ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanib borayotgan sharoitida, ta'lim sifatini oshirishning birdan bir prioritetli va samarali yo'nalishlardan bittasidir.

Ma'lumki, faol bilim olish va ilmiy izlanish faoliyati mustaqil izlanishlarning barcha turlaridan unumli foydalanishni talab qiladi. Talabani mustaqil ta'limi o'quv jarayonining barcha shakllarida namoyon bo'lmog'i zarur. Talabani mustaqil ishining asosiy maqsadi — o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Tabiiyki, talabani mustaqil ta'limiga rahbarlik qilish va tashkil qilishning asosiy prinsiplarini ko'rib chiqqanda juda katta e'tiborni talabada o'quv va ilmiy adabiyotlar ustida mustaqil ta'limning mustahkam ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratish darkor.

Ta'kidlash joizki, talaba mustaqil ta'limi — muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirishga yonaltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ishini bajarishdan asosiy maqsad — talabalarni semestr davomida fanni uzluksiz o'rganishini tashkil etish, olingan bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko'rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish hamda shu tariqa universitetda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat. Mustaqil ta'lim uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestrga ko'nikmalar hosil bolishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim, ya'ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondoshishga organib borishi kerak.

Masalan, mustaqil ta'limni tashkil etishda talabani akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin: Mustaqil ta'lim shakllari:

- loyihaviy;
- jamoaviy;
- yakka tartibdagi;
- auditoriyadan tashqari bajariladigan mustaqil ta'lim;
- auditoriyada bajariladigan mustaqil ta'lim.

Demak, ushbu shakllar mazmuni esa quyidagilarni aks ettirishi kerak:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib borish;
- belgilangan mavzular bo'yicha infografik taqdimotlar tayyorlash;
- testlar yechish;



- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish bo'yicha keyslar yechish;
- munozarali savollar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish;
- ko'rgazmali vositalar tayyorlash;
- axborot resurs markazida belgilangan mavzular bo'yicha nazariy, amaliy va statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish;
- belgilangan mavzular bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash;
- talabalar yotoqonasidagi ma'naviyat xonasi, kutubxona, zamonaviy axborot texnologiyalar markazi imkoniyatlaridan foydalanilgan holda mustaqil o'qish jarayonlarida ishtirok etish;
- kafedra va fakultetlarning ilmiy hamda ilmiy-uslubiy ishlarida ishtirok etish va boshqalar.

Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k) o'qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn o'qituvchiga himoya qilish orqali topshiriladi.

Talabalar ilmiy ijodi o'quv jarayonlaridan biri sifatida o'qitish, bilim berish va tarbiyalash vazifalarini bajarishda o'z xususiyatlariga ega. Talaba tadqiqot faoliyatiga jalb qilinib, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, statistik va boshqa materiallarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, o'rganilayotgan hodisani tanqidiy baholashga o'rganadi, nazariyani amaliyot bilan bog'laydi.

Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

Talabaga mustaqil ta'lim sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi. Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

**Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash.** Talabaga bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi [3].

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda "Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish" bo'yicha yo'riqnomada belgilangan quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

- Talabalar mustaqil ishlarini ikki ko'rinishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.
- Talabalar mustaqil ishlarini tizimli ravishda, ya'ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta'minlash.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlariga e'tibor qaratish:

- talabaning o'qish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati, o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasiga;
- talabaning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga;
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasiga;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasiga;
- mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar kursdan-kursga o'tish bilan shakl va hajm jihatidan o'zgarib borishiga;
- mustaqil ta'lim-fan xususiyati hamda talabaning akademik o'zlashtirish darajasiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etish.

Ma'lumki, o'qitishning asosiy shakllari – ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, maslahat darsi auditoriyada o'tkaziladi. Ularni tashkil etish mavzuni murakkabligi darajasiga, beriladigan axborot miqdoriga ko'ra avvaldan rejalashtiriladi, o'quv soatlariga ajratiladi. Ishlab chiqarish amaliyoti auditoriyadan tashqarida o'tkazilsa, unga ham avvaldan soatlar belgilanadi.

Talabalarning mustaqil ishlashini tashkil etishning asosiy va birinchi tamoyili uning sistematik tarzda, ya'ni doimiy, uzluksiz ravishda amalga oshirishdir. Ma'lumki, o'quv jarayonini tashkil etishda qat'iy ketma-ketlik,



uzviylikni muntazam olib borish talab qilinadi. Talaba auditoriyada olgan bilimini mustahkamlash, shu bilan birga, navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirish uchun har kuni mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak.

Talabani mustaqil ishidan maqsad o'qituvchining rahbarligi va nazorati asosida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishdir. Talabani mustaqil ishi vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- yangi bilimlarini mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish, ularning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'idai samarali foydalanish;
- berilgan topshiriqni muntazam va me'yorida bajarish;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;
- natijalarini muhokamaga tayyorlash va ko'rsatilgan kamchiliklarni qayta ishlash;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash, mutaxassislar jamoasida himoya qilish va boshqalar <sup>[4]</sup>.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil qilish shakllari turlicha bo'lib, ularning bir qismi o'quv rejasida ko'zda tutilgan. Uni har bir talaba bajarishi shart. Ikkinchi qismi ixtiyoriy ya'ni talabalar o'z xohishi bilan mustaqil bajarishlari mumkin.

Mustaqil ishini tashkil etishning muhim xususiyati, uni talabani o'zi tashkil qiladi. Shuning uchun uni rejalashtirish, vaqtini ratsional taqsimlashda talabaga yordam zarur.

Mustaqil ishini bajarish uchun talaba o'zini o'zi majbur qilishi kerak. Bunda ham obyektiv omil asosiy o'rin tutadi. Talabalarni mustaqil ishini tashkil etishda o'qishni boshqa shakllariga o'xshab, umumiy prinsiplari mavjud. Mustaqil ishini shu prinsiplar asosida tashkil qilish kerak. Mustaqil ishini tashkil etishda oddiy elementar prinsiplarini o'zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega va ana shu murakkab jarayonni to'laligicha qamrab oladi.

## XULOSA

Aytish mumkinki mustaqil ishlarni bajarish uchun vaqtni semestr davomida kunlar bo'yicha taqsimlash, uni ratsional tashkil qilishning muhim prinsipi, qoidasi hisoblanadi. Goh umuman dars tayyorlamay, goh haddan tashqari shoshib, shiddat bilan, ayniqsa semestr yaqiniga, oraliq nazorat yakuniga yaqin qoldirgan, bajar-magan ishlarni tezda bajarishga harakat qilish ijobiy natija berishi qiyin. Bu talabani mehnati samaradorligini, qilgan ishidan qoniqish hissini pasaytiradi. Odatda talabani kun tartibini dars jadvali belgilaydi, lekin ko'p narsa talabani o'ziga ham bog'liq. Masalan doklad, referat, nazorat ishi, seminar darsiga tayyorlanishga har haftada ma'lum vaqt ajratilib, muntazam ravishda olib borilmasa, kutilgan natija bermaydi. Bugungi kunda bir fan bo'yicha talabalarga mustaqil ta'lim uchun 20 soat ajratilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020-y., 06/20/5987/0521-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son; 04.07.2023-y., 06/23/107/0441-son)
2. Юсупов Фирнафас. Талабалар мустақил ишларини ташкил қилишда инновацион технологияларнинг роли / Фирнафас Юсупов, Г. С. Тахирова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2022. — № 45 (440). — С. 413-415. — URL: <https://moluch.ru/archive/440/96135/>
3. Гаязов А.С. Индивидуальные траектории образования личности [Электронный ресурс] / А.С. Гаязов // Режим доступа: <http://www.raop.ru/index.php?id=878>
4. Якиманская И.С. Требования к учебным программам, ориентированным на личностное развитие школьников // Вопросы психологии. 1994. — №2. — С. 64-67.
5. Хуторской А.В. Дидактика. Учебник для вузов. — СПб.: Питер, 2017. — 720 с.
6. Коростиянес Т.П. Технология формирования профессионально-педагогической компетентности будущих учителей математики по индивидуальным образовательным траекториям // Педагогическое мастерство: материалы междунар. научн. конф. (г. Москва, ноябрь, 2014 г.). М. : Буки-Веди, 2019. С. 258–261.
7. Александрова Е. А. Эволюция методов и приёмов воспитания: 2017 // Сибирский педагогический журнал. 2017. № 6. С. 7–14; Александрова Е. А. Путь ребенка к самому себе: индивидуальная траектория // Социальная педагогика. 2015. № 3. С. 32–39; Александрова Е. А. Психологическое и педагогическое сопровождение: индивидуальная траектория развития // Народное образование. 2014. — № 9. — С. 180–187.
8. Mirzayeva Faroxat. "Kredit-modul tizimining amaliyotga joriy etilishi". // Евразийский журнал академических исследований 2.11 (2022): 479-484.





**Muharrir:** Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 2-3**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №C-5669245  
reyster raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga  
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mayze 19-uy**